



**O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI SOĞ'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TİBBİYOT AKADEMIYASI
BUYRUG'I**

2 aprel 2025 yil.

729-son

Toshkent sh.

Toshkent tibbiyot akademiyasida “Aprel-sport oyligi” doirasida “Biz sog‘lom yurt farzandlarimiz” shiori ostida sport bayrami va sport musobaqalarini o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni, Davlat rahbari, Milliy Olimpiya qo‘mitasi raisi Shavkat Mirziyoev boshchiligidagi joriy yilning 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda-Akademiya) professor-o‘qituvchilari va talaba-yoshlari o‘rtasida sportni hamda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, yoshlarni jismonan baquvvat etib tarbiyalash va jismoniy tarbiyaga qiziqtirish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Akademiyada “Aprel-sport oyligi” deb e’lon qilinsin.

2. Joriy yilning 8-aprel kuni Akademianing “Shifokor” sport majmuasida “Biz sog‘lom yurt farzandlarimiz” shiori ostida sport bayrami hamda sport musobaqalarining (keyingi o‘rinlarda-Sport bayrami) ochilish marosimi yuqori saviyada tashkil etilsin.

3. “Biz sog‘lom yurt farzandlarimiz” shiori ostida sport bayrami hamda sport musobaqalarining ochilish marosimini o‘tkazish uchun Tashkiliy ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Barcha prorektorlar (Sh.A.Boymuradov, T.A.Bobomuratov, F.L.Azizova, M.Sh.Karimov, J.J.Istroilov), barcha fakultet dekanlari (I.O.Otajonov, A.A.Irnazarov, A.A.Xamrayev, F.I.Salomova, S.I.Aliyev, J.X.Tursunov, A.A.Imomov):

Sport bayramiga Akademiya bosh binosi, 3 va 10-o‘quv binosida dars mashg‘ulotlari o‘tiladigan talabalarini fan o‘qituvchisi bilan, shuningdek, 1-3 bosqich talabalarini to‘liq tarkibda ishtirop etishi choralarini ko‘rsin;

Sport bayramining parad va badiiy qismlarida qatnashuvchi talabalarни tadbiriga hamda tayyorgarlik jarayonlariga ishtiropini ta‘minlasin.

5. Sport va madaniyat bo‘limi boshlig‘i (Z.B.Fayziyev), “Shifokor” sport majmua rahbari (Sh.F.Yermatov), Yoshlar ittifoqi yetakchisi J.M.Boboev:

Sport bayramiga taniqli sportchilar va san’atkorlar ishtirokini ta’minalash choralarini ko‘rsin;

Sport bayramining badiiy qismini yuqori saviyada tayyorlasin;

Sport bayrami davomida bolalar estafetasi, oilaviy estafeta, talabalar estafetasi, arqon tortish, sheyping va stol tennisi musobaqalarini o‘tkazsin;

“Aprel-sport oyligi” davomida talabalar va xodimlar o‘rtasida “Rektor kubogi”, “TTJ kubogi”, Yoshlar ittifoqi kubogi” musobaqalarini o‘tkazilishini ta’minalasin.

6. Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i (O.U.G‘oipov), Bosh buxgalter o‘rinnbosari (O‘.M.Bo‘riboyev), Ekspluatatsiya va xo‘jalik boshqarmasi boshlig‘i (X.R.Mamatov), “Shifokor” sport majmua rahbari (Sh.F.Yermatov):

“Sport bayrami” tadbirini yuqori saviyada tashkil etish uchun “Shifokor” sport majmuasini tayyorlasin;

Sport majmuasiga bayramona tus berib, “Sog‘lom turmush tarzi”ni targ‘ib etuvchi bannerlar o‘rnatalishini ta’minalasin;

Sport bayramida ishtirok etuvchi professor-o‘qituvchilar va talabalarni ustki sport kiyimlari (futbolka va kepkalar), tomoshabin sifatida ishtirok etuvchilarni kepkalar bilan shuningdek kontsert dasturida ishtirok etuvchi talabalarni milliy liboslar bilan ta’minalash choralarini ko‘rsin;

“Aprel-sport oyligi” hamda “Biz sog‘lom yurt farzandlarimiz” sport bayramida o‘tkazilgan musobaqalarning 1-,2-,3-o‘rin g‘oliblari hamda nominatsiyalar sohiblarini o‘rnatalgan tartibda rag‘batlantirsin.

7. Matbuot kotibi (G.T.Mirzayeva) “Sport bayrami” jarayonlarini OAVlar, ijtimoiy tarmoqlar va Akademiya rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minalasin.

8. Mazkur buyruq ijrosining nazorati Yoshlar masalalari va ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (T.A.Bobomuratov) zimmasiga yuklatilsin.

Rektor v.v.b.



SH.A.Boymuradov